

**“Yoshlar turizmi: yangi formatlar va tashabbuslar” mavzusidagi
“Students Cup – 2025” Respublika talabalar tanlovi to‘g‘risidagi
NIZOM**

Tashkilotchilar:

O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institute

Tanlovning maqsadi:

Tanlov O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining bakalavr va magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talabalari o‘rtasida turizm sohasini rivojlantirishga, ilmiy-innovatsion yechimlarni joriy etishga hamda respublikaning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga qaratilgan ijodiy tashabbuslarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘tkaziladi.

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu Nizom “Yoshlar turizmi: yangi formatlar va tashabbuslar” mavzusida Yoshlar turizmi: yangi formatlar va tashabbuslar” mavzusidagi “Students Cup – 2025” Respublika talabalar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Tanlovning maqsadi — turizm sohasida istiqbolli loyihalarni aniqlash, yoshlarning ushbu yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, turizm sohasidagi dolzarb muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni shakllantirishga ko‘maklashishdan iborat.
- 1.3. Tanlov ushbu Nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

2. Tanlov tashkilotchilari

- 2.1. Tanlov tashkilotchisi — O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti hisoblanadi.
- 2.2. Tashkilotchi tanlovni tayyorlash va o‘tkazish, shuningdek, ishtirokchilarga tanlov shartlari va natijalari haqida axborot berish uchun mas’uldir.
- 2.3. Tanlovni o‘tkazish maqsadida turizm sohasi mutaxassislari, ilmiy hamjamiyat vakillari hamda davlat organlari vakillaridan iborat Tashkiliy qo‘mita va Hay’at (Hakamlar hay’ati) tuziladi.

3. Tanlovning maqsad va vazifalari

- 3.1. Tanlovning asosiy maqsadlari:

- O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish masalalariga yoshlarning e’tiborini jalb etish;

- Turizm sohasini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy-innovatsion g'oyalar va loyihalarni aniqlash hamda qo'llab-quvvatlash;
- Yoshlarning malaka darajasini oshirish, ularning turizm hamda ilmiy faoliyatdagi kasbiy o'sishini rag'batlantirish.

3.2. Tanlovning asosiy vazifalari:

- Turizm sohasida yoshlar tashabbuslarini rag'batlantirish;
- Turistik xizmatlarni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlarni joriy etish;
- Talabalar, mutaxassislar va turizm sohasi ekspertlari o'rtasida g'oyalar va loyihalar almashish uchun platforma yaratish.

4. Tanlov ishtirokchilari

4.1. Tanlovda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bakalavr va magistratura talabalari ishtirok etishlari mumkin. Ular turizm masalalariga qiziqish bildirgan hamda mamlakat turizm sohasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishni istagan bo'lishlari lozim.

4.2. Tanlovda ishtirok etish faqat **individual tartibda** amalga oshiriladi.

4.3. Har bir ishtirokchi tanlovga faqat **bitta loyiha** taqdim etish huquqiga ega.

5. Loyihalar mavzusi

“**Students Cup – 2025**” tanlovi doirasida loyihalar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha qabul qilinadi:

- **Turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish:** yangi turistik mahsulot formatlarini yaratish, agro-, eko-, etno- va gastronomik turizmni rivojlantirish, turistlarga xizmat ko'rsatishda raqamli yechimlarni joriy etish;

- **Kreativ industriyalar va turizm:** turizmning san'at, dizayn, kino, madaniy meros bilan o'zaro aloqasi, madaniy yo'nalishlar va tadbir dasturlarini rivojlantirish;

- **Turizmda marketing kampaniyalari:** hudud brendingi, turistik mahsulotlarni targ'ib etish, raqamli (digital) va SMM kampaniyalar ishlab chiqish, ko'rgazmalar va forumlarda ishtirok etish;

- **Turizmda kadrlar siyosati:** soha kadrlarini tayyorlash, o'qitish va salohiyatini rivojlantirish, professional standartlar, motivatsiya hamda turizm sohasida kasbiy o'sishni ta'minlash;

- **Barqaror rivojlanish va ekologik yondashuv:** turistik marshrutlarni ekologizatsiya qilish, tabiiy resurslarni asrash, mas'uliyatli va “yashil turizm”ni ommalashtirish.

5.1. Tadqiqot loyihalari

- O'zbekiston turizm sohasining rivojlanish yo'nalishlarini o'rganish;

- Yangi turistik yoʻnalishlarni (ekoturizm, agroturizm, madaniy-tarixiy turizm va boshqalar) tahlil qilish;
- Turizmning mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga taʼsirini baholash.

5.2. Innovatsion loyihalar

- Turistlar uchun mobil ilovalar yoki onlayn platformalar ishlab chiqish (masalan, ekskursiyalarni bron qilish, gidlarni topish, marshrutlarni rejalashtirish uchun);
- Turizm sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish (VR-turlar, raqamli xaritalar, navigatsion tizimlar);
- Turistik agentliklarda jarayonlarni avtomatlashtirish (turistik xizmatlarni raqamlashtirish).

5.3. Biznes loyihalar va startaplar

- Noyob mahsulot va xizmatlarga ega turistik agentliklar yoki kompaniyalar tashkil etish (masalan, etnoturlar, gastronomik turlar);
- Mahalliy turistik yoʻnalishlar uchun franshizalar yoki kooperativlar ishlab chiqish;
- Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish boʻyicha gʻoyalalar.

5.4. Marketing strategiyalari

- Yangi turistik yoʻnalishlar va mahsulotlarni targʻib qilish rejasini ishlab chiqish (ichki va kirish turizmi);
- Oʻzbekiston milliy brendlarini xalqaro miqyosda targʻib qilish;
- Turistlarni jalb etish uchun reklama kampaniyalari va ijtimoiy media strategiyalar ishlab chiqish.

5.5. Ijtimoiy loyihalar

- Aholi orasida turizmga oid savodxonlik va xabardorlikni oshirish dasturlari;
- Yoshlar va mahalliy jamoalarni turizmni rivojlantirish jarayoniga jalb etuvchi loyihalar;
- Turizm sohasida koʻngillilik (volontyorlik) dasturlarini tashkil etish gʻoyalari.

5.6. Ekologik loyihalar

- Tabiiy bogʻlar va qoʻriqxonalar hududida ekoturistik yoʻnalishlarni ishlab chiqish;
- Turizm doirasida tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish hamda asrash gʻoyalari;
- Atrof-muhitga salbiy taʼsirni kamaytiruvchi barqaror turizmni targʻib etuvchi loyihalar.

5.7. Taʼlim va maʼrifiy loyihalar

- Turizm sohasi xodimlarini oʻqitish va malakasini oshirish dasturlari;
- Turizm sohasidagi koʻnikmalarni rivojlantirish uchun kurslar tashkil etish (gidlar, ekskursionovodlar, turizm menejerlari uchun);

- Ta'lim muassasalarida turizmni o'qitishda yangi metodika va standartlarni joriy etish.

5.8. Kreativ loyihalar

- Mintaqalarning madaniy va tarixiy xususiyatlariga asoslangan turistik marshrutlar yaratish;
- Turistik obyektlar haqida videoroliklar, hujjatli filmlar yoki virtual ekskursiyalar tayyorlash;
- Kam tanilgan madaniy obyektlarning o'ziga xosligi va jozibasini ochib beruvchi kreativ taqdimotlar yaratish — mahalliy va xorijiy turistlarning e'tiborini jalb etish maqsadida;
- Turistlarni jalb etishga qaratilgan festivallar yoki tadbirlar tashkil etish.

5.9. Ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar

- Turizm orqali mintaqalarning iqtisodiy diversifikatsiyasi strategiyalarini ishlab chiqish;
- Kichik shahar va qishloqlarda turistik infratuzilmani yaxshilash bo'yicha g'oyalar;
- Chet ellik turistlarni jalb etish va turizm orqali daromadlarni oshirishga qaratilgan loyihalar.

6. Tanlov bosqichlari

6.1. Tanlov bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich:

Ro'yxatdan o'tish va arizalarni topshirish

Arizalar tanlov Nizomi e'lon qilingan paytdan boshlab, Tashkilotchi tomonidan belgilangan muddat ichida qabul qilinadi.

Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar ro'yxatdan o'tish shaklini to'ldiradilar va loyihaning tavsifini multimediya taqdimoti bilan birgalikda topshiradilar.

2-bosqich:

Saralash bosqichi

Ekspertlar komissiyasi ishtirokchilarning taqdim etgan materiallarini Nizomda ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.

3-bosqich:

Yarim final

Saralash bosqichidan o'tgan ishtirokchilar o'z loyihalarini taqdimot shaklida namoyish etadilar. Hay'at (Hakimlar hay'ati) loyihalarni baholab, finalga chiqadigan ishtirokchilarni aniqlaydi.

4-bosqich:

Final va taqdirlash marosimi

Final bosqichiga chiqqan ishtirokchilar o'z loyihalarini Hay'at va tadbir mehmonlari oldida taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. G'oliblar diplom, mukofot va sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

7. Loyihalarini baholash mezonlari

7.1. Loyihalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- G'oyaning innovatsionligi va o'ziga xosligi – 25 ballgacha;
- Loyihaning amaliy ahamiyati va real bajariluvchanligi – 25 ballgacha;
- Loyihaning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati – 20 ballgacha;
- Loyihaning O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga ta'siri – 20 ballgacha;
- Loyihaning taqdim etilish sifati – 10 ballgacha.

8. Tanlov ishlariga qo'yiladigan talablar

Tanlov doirasida har bir loyiha yozma shaklda rasmiylashtirilgan bo'lishi va quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi lozim:

8.1. **Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati** – tanlangan mavzuning O'zbekistonda hamda undan tashqarida turizm sohasining hozirgi holati va istiqboli uchun nechog'li muhimligini asoslash.

8.2. **Turizm rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi** – loyiha Turizm qo'mitasi tomonidan belgilangan asosiy yo'nalishlar, davlat dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan qanday bog'liqligini tushuntirish.

8.3. **Tadqiqot metodlari** – loyiha doirasida qo'llanilgan tadqiqot va tahlil usullari, yondashuvlar hamda natijaga erishish uchun ishlatilgan vositalarni bayon etish.

8.4. **Yangilik darajasi** – loyiha mavjud yechimlardan nimasi bilan farq qilishini, undagi o'ziga xos va innovatsion jihatlarni ko'rsatish.

8.5. **Iqtisodiy asos** – loyihaning iqtisodiy samaradorligini qisqacha tahlil qilish yoki hisob-kitobni keltirish, taxminiy byudjet va xarajatlar, shuningdek, uni amalga oshirishdan kutilayotgan foydani ko'rsatish.

8.6. **Muammoning qisqa bayoni** – loyiha yechishga qaratilgan asosiy muammoni aniq va lo'nda ifodalash.

8.7. **Ijtimoiy ahamiyati** – loyihaning jamiyat, turizm sohasi va iqtisodiyotga kutilayotgan ta'sirini baholash, uning mahalliy aholiga va jamiyatga foydasini ko'rsatish.

8.8. **Natijalar va takliflar** – loyihadan kutilayotgan asosiy natijalarni umumlashtirish, shuningdek, turizm sohasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan aniq tavsiyalar yoki qadamlarni ko'rsatish.

8.9. **Xulosa** – loyiha bo'yicha asosiy xulosalar, tadqiqot natijalari va uning ahamiyatini yakuniy tarzda ifodalash.

8.10. Loyiha **yo'zma ish** va **multimediya taqdimoti** shaklida taqdim etilishi kerak.

8.11. Yozma ishning maksimal hajmi – **15 betgacha**, shrift – *Times New Roman*, o'lchami – **14**, satr oralig'i – **1,5**.

8.12. Multimediya taqdimotlari **PowerPoint** yoki unga o'xshash formatda tayyorlanib, taqdimotning davomiyligi **10 daqiqadan oshmasligi** lozim.

8.13. Loyihalar **original** bo'lishi, **mualliflik huquqlarini buzmasligi**, hamda ilgari boshqa tanlovlarda **nashr etilmagan yoki taqdim etilmagan** bo'lishi shart.

9. Mukofotlar va sovrinlar

9.1. Tanlov g'oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadilar:

- **1-o'rin:** Diplom, **7 million so'm** miqdorida pul mukofoti hamda yetakchi turistik kompaniyada **stajirovka o'tash imkoniyati**;
- **2-o'rin:** Diplom, **5 million so'm** miqdorida pul mukofoti va **ta'lim dasturlarida ishtirok etish uchun sertifikat**;
- **3-o'rin:** Diplom va **3 million so'm** miqdorida pul mukofoti.

10. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari

10.1. Ishtirokchilar tanlov shartlariga rioya etishlari hamda o'z ishlariga doir ishonchli va haqqoniy ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

10.2. Ishtirokchilar tanlov jarayoni, uning natijalari va mukofotlari haqida to'liq ma'lumot olish huquqiga egadirlar.

10.3. Tashkilotchi eng yaxshi ishlarga ularning mualliflari ko'rsatilgan holda ommaviy axborot vositalarida yoki rasmiy platformalarda chop etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

11. Yakuniy qoidalar

11.1. Ushbu Nizom e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11.2. Nizomda nazarda tutilmagan masalalar Tashkiliy qo'mita tomonidan hal etiladi.

11.3. Tanlov tashkilotchisi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega bo'lib, bu haqda ishtirokchilar xabardor qilinadi.